

Agroturizm Va Uning Infratuzilmasini Rivojlantirish Yo'llari

Sirojov Oxunjon Odil o'g'li

Buxoro Avtomobil va Yo'llar texnikumi iqtisodiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekistonda agroturizm haqida ma'lumot juda ham kam, yaxshi rivojlanmagan. Agroturizm sohasini rivojlantirish maqsadida turli xildagi chora tadbirlar ko'rib chiqilishi kerak. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida agroturizm obyektlarini ishlab chiqish va shu bilan birga migratsiya darajasini kamaytirish, turizm industriyasi rivojlanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: turizm, ichki turizm, kiruvchi, chiquvchi turizm, sport turizm, rekreatsion turizm, ekstrimturizm, etnografik turizm, diniy turizm, baliqchilik turizm, suv turizm, agroturizm, P.E.C.O modeli.

Kirish.

Turizm bu in potensiali asosida shakllanadigan yo'nalish hisoblanadi. Insoniyat rivojlanishiga qarab, uning ehtiyoji, didi, xoxishi o'zgarib boradi, shuning natijasida uning dunyoqarashi o'zgaradi va yangi yangi xoxishlar paydo bo'lib boraveradi. Turizm ham shu unsurlarga moslashgan holda o'z shakliga ega bo'ladi va rivojlanib boraveradi.

Ayniqsa pandemiya davridan so'ng insonlar osoyishta hayotni sokinlikni, Shahar shovqin suronidan uzoqda bo'lishni istab qolishdi va ular sayohatga chiqa boshlashdi. Bularga tabiat qo'ynida dam olish yoki shahar svilizatsiyasidan uzoqda bo'lgan ovullarga borishni istab qolishdi. Bundan ko'rinib turibdiki agroturizmga ehtiyoj paydo bo'lib boshladi.

Agro turizm – bu qishloq xo'jaligiga moslashtirilgan va turli xildagi xizmatlarni taqdim qiluvchi qishloq xo'jaligi infratuzilmasiga asoslangan turizm xizmati.

Agroturizm tashrif buyuruvchilarni oziq-ovqat va tola ishlab chiqaradigan yer, odamlar va ekinlar bilan bog'lash uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Qishloq hayotining xilma-xilligi va boyligini namoyish qiluvchi qiziqarli va ta'lim beruvchi tajribalar, jumladan, agroekologiya, seminarlar va ochiq fermerlik kunlarini taqdim etish orqali agroturizm qishloq xo'jaligi merosini saqlashga, mahalliy oziq-ovqat tizimini rivojlantirishga va qishloq iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Materiallar.

Qishloq xo'jaligi merosi, barqaror qishloq xo'jaligi, mahalliy oziq-ovqat tizimlari, dehqon bozorlari, qishloq xo'jaligi ta'limi, fermer xo'jaligi tajribasi o'zida mujassamlashtirilgan chuqur bir tushunchadir. O'zida oddiylikni va soddalikni mujassamlashtirilgan bu yo'nalish o'ziga qayta va qayta jalb qilaveradi. Har bir tashrif buyurgaturistlar o'ziga yana yangicha ma'lumotlarga ega bo'ladi.

O'zbekiston respublikasida agroturizm – turizmning yosh yo'nalishi bo'lib, hali uncha yaxshi rivojlanmagan. Mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirishda maxsus chora tadbirlar ko'rilmagan. Xorijiy tajribalariga tayangan holda yangi dasturlar ishlab chiqish kerak. Agroturizm hozirda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yoki bo'lmasam, ziyorat yoki etnografik turizm shakllari tarkibiga kiritib yuborilgan. Agroturizm yo'nalishini yangi bir turizm shakli sifatida shakllantirishimiz lozim.

Agroturizm industriyasining qishloqning tabiiy, madaniy, tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanish va uning o'ziga xos xususiyatlaridan kompleks turizm mahsulotini yaratishga yo'naltirilgan sektori.

Qishloq turizmidan ular qishloq hayotining osoyishtaligi va muntazamligini, toza havo, jimjitlik va tabiiy mahsulotlar, qulay yashash sharoiti, qulay sharoit, qulay narxlar, tabiatga yaqinlik hissi, yangi taassurotlar olish, mahalliy aholi bilan tanishishni kutadilar. An'analar, bolalar uchun o'yin-kulgi imkoniyatlari va kattalar uchun bo'sh vaqt imkoniyatini beradi.

Tadqiqot va usullar.

O'zbekistonda agroturizm rivojlanishi yuqorida aytganimizdek, xudi P.E.C.O modeliga o'xshab ketadi. Bunda agroturizm mexanizmlarida o'zgarishlar bo'lyapti va tajriba so'ngida yangi bird astur paydo bo'ladi. Buni Buxoro viloyati misolida ham korishimiz mumkin.

Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligini yaxshilash maqsadida qilinayotgan ishlar chora tadbirlar, Buxoro-agro erkin iqtisodiy zonasini tashkillashtirilishi, agroklasterning qurilishi, issiqxonalarining barpo bo'lishi tarixiy va madaniy merosimizni tanitish maqsadida olib borilayotgan festivallar buning yaqqol misoli.

Hozirgi vaqtda Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning kuchayishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lgan aholi sonining qisqarishi bilan tavsiflangan qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi munosabati bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini almashtiradigan yoki to'ldiradigan yangi faoliyat turlarini topish masalasi paydo bo'ldi. .

Natijalar.

Hududlarda agroturizmning rivojlanishi bu muammoni mukammal hal qiladi, chunki bu qishloqning iqtisodiy o'sishi uchun "katalizator" bo'lishi mumkin bo'lgan turizm komponenti. Buning uchun bir nechta tushuntirishlar mavjud.

Birinchidan, turizm faoliyati kichik boshlang'ich investitsiyalar tufayli jozibador, chunki mablag'lari juda cheklangan qishloq aholisi uchun bu amalda hal qiluvchi daqiqadir.

Ikkinchidan, turizm - bu yuqori rentabellik darajasi va minimal o'zini o'zi qoplash muddati bo'lgan daromadli soha bo'lib, bu tezda daromad olish uchun juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini faol rivojlantirayotgan va turizm sohasiga sarmoya kiritayotgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich bo'yicha sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda turizm sohasini modernizatsiya qilish, ushbu sohani barqaror rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va takomillashtirish, xorijlik mehmonlarga xalqaro andozalar asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda¹.

Davlat siyosatining eng muhim strategik maqsadlaridan biri qishloq joylarini barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, qishloq aholi punktlarining barcha xilma-xilligidagi mavjud qishloq aholi punktlarini saqlab qolishdan iborat. Qishloqlarda turizm infratuzilmasini, xususan, agroturizmni rivojlantirish qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, qishloq aholisining bandligi va daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan biriga aylanishi mumkin; kichik biznesni, jumladan, bandlikning muqobil yo'nalishlarida rivojlantirish, buning natijasida qishloq joylarda turmush sifatini oshirish.

Muhokamalar.

Yuqoridagi ma'lumotlar va natijalardan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekistonda agroturizm samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ishlab chiqildi.

- marketing tadqiqotlarini olib boorish yangi dasturlarni ishlab chiqish;

¹ <http://agroturizm.uz/ru/novosti/39-agroturizm-kak-perspektivnoe-napravlenie-realizatsii-turistskogo-potentsiala-respubliki-uzbekistan>

- rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish natijasida agroturizm strategiyasini ishlab chiqish va uni bosqichma bosqich olib boorish;
- xalq hunarmadchiligini saqlash;
- agroklastarlarga tayanmagan holda, yangi etnik va madaniy merosga ega bo'lgan qishloq ovullarni kashf etish;
- har bir hududga moslashtirilgan holda agroturizm tarmog'ini yaratish;
- mavsumga moslashtirilgan holda qishloq xo'jaligida joylashgan mehmonxonalar qurish;
- qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaxshilash (avto transport yo'llari, suv , gaz bilan ta'minlash);
- fermer xo'jaliklarida qo'shimcha daromad olish maqsadida kichkina mehmonxonalar qurishni tashkillashtirish.

Xulosa.

Agroturizm qishloq aholisining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etishini yuqorida ko'rinib o'tdik. An'anaviy turizm turlariga nisbatan yangi, ammo O'zbekiston uchun juda istiqbolli dam olish usuli sifatida – qishloq xo'jaligi turizmi qo'shiladi, bu esa o'zining afzalliklariga egadir

Mamalaktimizda olib borilayotgan chora tadbirlar, qaror va farmoyishlar iqtisodiy salohiyatni amalga oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan kamchiliklar agroturizm sohasini alohida huquqiy me'yoriy hujjatlar bilan shakllantirish va uni alohida bir soha sifatida ko'rilsagina rivojlanishga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-sonli farmoni.
2. 2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori
3. "Buxoro-agro" erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.10.2018 yildagi 803-sonli qarori
4. <http://agroturizm.uz/ru/novosti/39-agroturizm-kak-perspektivnoe-napravlenie-realizatsii-turistskogo-potentsiala-respubliki-uzbekistan>
5. Alpheaus Litheko. Development and Management of Small Agro-Tourism Enterprises: A RuralDevelopmentStrategyArticle in African Journal of Hospitality Tourismand Leisure · June 2022